**Emro Science and Education**
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 2 (2026) · "Milliy statistika tizimida yangi bosqich: barqaror rivojlanish maqsadlari, xalqar... DOI: 10.5281/zenodo.24319777

**"MILLIY STATISTIKA TIZIMIDA YANGI BOSQICH: BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI, XALQARO STANDARTLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR"**

# O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA UNDA MALAKALI KADRLARNI O'RNI

**TUXTAMISHEV SHODIMUROD QURBONBOYEVICH**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Savdo ishi" kafedrasi dotsenti*
**SOLIBOYEV SHAXRIYOR DILSHOD O'G'LI**
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2-bosqich talabasi*
+998901539157

O'zbekistonda yashil iqtisodiyot — bu atrof-muhitga zararni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishga asoslangan barqaror rivojlanish modelidir. O'zbekistonda milliy iqtisodiyotning isloh qilishda barcha jabhalarda tub o'zgarishlar davom etmoqda. Bugungi kunda "yashil" iqtisodiyotga o'tish – iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, uning raqobatbardoshligini oshirish va mamlakatni barqaror rivojlantirish sharti sifatida qaralmoqda. Qayd etish joizki, "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asosiy maqsadlari sifatida iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste'mol qilish hamda global iqlim muammolariga moslashishni kiritish mumkin. Mazkur belgilangan maqsadlarga erishish uchun esa texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish talab etiladi. Bu borada mamlakatimizda iqlimning o'zgarishi sharoitida samarali, resurs tejamkor va ekologik xavfsiz iqtisodiyotni ta'minlashda "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident Qarori qabul qilindi.

O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyotga o'tish zaruriyati milliy iqtisodiyotga iste'mol qilinayotgan energiyaning aksariyat qismi tiklanmaydigan tabiiy resurslardan foydalanib ishlab chiqarilayotganligi, ushbu resurslar zaxirasining cheklanganligi, sanoatning jadal sur'atlarda rivojlanishi oqibatida atrof-muhitning ifloslanishi, suvtanqisligi, Orol dengizining qurib borishi bilan bog'liq ekologik muammolarning keskinlashib borayotganligi bilan izohlanadi. Shunga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, tarkibiiy o'zgarishlarning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish ichki va global jarayonlar hamda muammolarni hisobga olishni taqozo etadi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish, jumladan, Parij bitimi majburiyatlarini bajarish maqsadida 2019-yil 4-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-sonli Qarori qabul qilindi.



Published: 05.06.2026

**Cite this article:** Tuxtamishev Shodimurod Qurbonboyevich, Soliboyev Shaxriyor Dilshod o'g'li (2026). O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot va unda malakali kadrlarni o'rni. Emro Science and Education, 2(2). https://doi.org/10.5281/zenodo.24319777

*© 2026 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

Strategiyadan ko‘zlangan maqsad mamlakatda amalga oshirilayotgan tuzilmaviy islohotlarga “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali ijtimoiy rivojlanishga, issiqxona gazlarining ajratmalari darajasini pasaytirishga, iqlim va ekologiya barqarorligini ta’minlovchi mustahkam iqtisodiy taraqqiyotga erishishdan iborat.

Strategiyada belgilangan birinchi ustuvor yo‘nalish bo‘yicha iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlarida energiya samaradorligini 2030-yilga qadar 2 baravarga oshirish vazifasi qo‘yilgan. Jumladan, ushbu maqsadga sanoat korxonalari infratuzilmasini modernizatsiyalash, sof va ekologik xavfsiz texnologiyalar va sanoat jarayonlaridan yanada keng foydalanish hisobiga energiya samaradorligini 20%dan kam bo‘lmagan miqdorga oshirish, motor yoqilg‘isi va avtotransport vositalari ishlab chiqarishni energiya samaradorlik va ekologik jihatdan yaxshilash, elektr transportni rivojlantirish hisobiga erishish rejalashtirilgan (1-jadval).

1-jadval: Strategiyani amalga oshirishning maqsadli ko‘rsatkichlari [3]

| Maqsadli ko‘rsatkichlar | Kutilayotgan natija |
|---|---|
| Issiqxona gazlarining YAIMga nisbatan solishtirma ajratmalarini qisqartirish | 2010-yildagi darajadan 10%ga qisqartirish |
| Energiya samaradorligini oshirish | Ikki baravari |
| Tiklanadigan energiya manbalarini yanada rivojlantirish | Umumiy elektr energiya ishlab chiqarish hajmining 25% idan ko‘prog‘iga yetkazish |
| Aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini zamonaviy, arzon va ishonchli energiyadan foydalanish imkoniyatini yaratish | 100% gacha |
| Sanoat korxonalari infra tuzilmasini modernizatsiyalash, sof va ekologik xavfsiz texnologiyalar va sanoat jarayonlaridan yanada keng foydalanish hisobiga ularning barqarorligini ta’minlash | Energiya samaradorligini 20 foizdan kam bo‘lmagan miqdorga oshirish |
| Motor yoqilg‘isi va avtotransport vositalari ishlab chiqarish hamda ulardan foydalanishni kengaytirish, elektr transportni rivojlantirish | Energiya samaradorlik va ekologik jihatdan yaxshilash |
| Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish | 1 mln. gektargacha maydonda tomchilatib sug‘orish texnologiyasini joriy etish va ularda yetishtiriladigan ekinlar hosildorligini 20-40%gacha oshirish |
| Yerlarning tanazzulga uchrashish darajasini pasaytirish | Neytral balansga erishish |
| Asosiy qishloq xo‘jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish | O‘rtacha hosildorligini 20-25%gacha oshirish |

*1-jadval*

Mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda energiya resurslari iste’molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish ikkinchi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Ushbu maqsadga erishishda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o‘zlashtirish, binolarni qurish va ulardan foydalanish, transport sohasi hamda qurilish materiallari ishlab chiqarishda energiya iste’molini diversifikatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. 2030-yilga qadar qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirish hisobiga ushbu energiya manbalari ulushini umumiy elektr energiya ishlab chiqarish hajmining 25%idan ko‘prog‘iga yetkazish, aholi va

iqtisodiyot tarmoqlarining zamonaviy, arzon va ishonchli energiyadan foydalanish imkoniyatini 100%ga yetkazish vazifalari belgilangan .

Shu maqsad erishish uchun albatta kadrlar salohiyati juda muhim o‘rin tutadi. Sohalar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanmas ekan maqsadlarga erishilmaydi.

Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ekspertlari O‘zbekistonda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qanday kadrlar tayyorlanishini o‘rgandi.

Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash uchun barcha sohalarda “yashil” iqtisodiyot texnologiyalarini faol joriy etish 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi vazifalari doirasidagi maqsadlardan biri.

Ushbu maqsadga erishish bir vaqtning o‘zida “yashil” iqtisodiyot uchun kadrlar tayyorlash zaruratini ham ko‘ndalang qo‘yadi.

OECD (2011), Cedefop (2009) kabi xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlarida inson resurslarini rivojlantirish iqtisodiyotni “yashillashtirish” uchun asos ekanligi ta’kidlanadi.

**Tahlil jarayonida quyidagi jihatlarga e’tibor qaratdi:**

“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish tabiiy resurslar (shu jumladan suv) dan nooqilona foydalanish, havoning ifloslanishi, o‘rmonlarning qisqarishi, yerlarning degradatsiyaga uchrashi va iqlim o‘zgarishi kabi ekologik muammolarni hal etishda yordam beradi.

Yuqori darajadagi IT ko‘nikmalariga ega bo‘lgan aholi ulushining oshishi “yashil” bandlikning o‘sishiga boshqa omillarga nisbatan ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi.

2022—2023-o‘quv yilida tayyorlanadigan kadrlarning 30 foizdan ortig‘i “yashil” iqtisodiyotga mos keladi. Taqqoslash uchun, 2019—2020-o‘quv yilida bu ko‘rsatkich 5 foizni tashkil etgan.

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —




Oliy ta’lim muassasalarining 2019—2020 va 2022—2023-o‘quv yillari uchun kadrlar tayyorlash parametrlari (magistratura mutaxassisliklari)ni kontent-tahlildan o‘tkazish quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

Mamlakat oliy o‘quv yurtlarida (shu jumladan, hududiy filiallarda) “yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun eng zarur mutaxassisliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlash, jumladan biotexnologlar, muqobil (quyosh va shamol) energetika, shuningdek, suv va yer resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha muhandislar, iqlim xavfini baholash, bioiqtisodiyot bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan.

Shu bilan birga energiya tejamkor inshootlar va texnologiyalarni, jumladan sun’iy intellektni loyihalash, foydalanish va ishlab chiqarish bo‘yicha kadrlar tayyorlash ham yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston–2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi 2025-yil 30-yanvar PF-16 farmonining 6-bandida inson salohiyatini yuksaltirish, ta’lim uchun qulay muhit yaratish ishlarini tashkil etish maqsadida 2025/2026 o‘quv yilidan:

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi kabi ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha yetakchi oliy ta’lim tashkiloti etib belgilanishi;

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universitetida “sirkulyar iqtisodiyot” ta’lim yo‘nalishida kadrlar tayyorlash amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universitetiga biriktiriladigan “yashil texnikumlar” faoliyati yo‘lga qo‘yilishi;

tabiiy fanlar, muhandislik-texnika, iqtisodiyot va moliya yo‘nalishlaridagi davlat oliy ta’lim tashkilotlarida “Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil rivojlanish” fani va o‘quv dasturlari kiritilishi;

oliy ta’limda grant o‘rinlarini bosqichma-bosqich oshirish hisobiga aniq va tabiiy fanlar, muhandislik-texnika, xizmatlar, tibbiyot kabi sohalarda davlat buyurtmasi 25 mingtaga yetkazilishi;

“El-yurt umidi” jamg‘armasi tomonidan ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi ta’lim dasturlari asosida ta’lim olish uchun stipendiya tanloviga 20 tagacha kvota ajratib borilishi belgilangan.

Bu albatta “yashil iqtisodiyot” uchun shunga mos mutaxassislar tayyorlash ancha yo‘lga qo‘yilayotganini bildiradi va bu davlat dasturi darajasida ko‘rilayotganligi albatta quvonarli holatdir.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va ekologik muammolarni tezroq bartaraf etish uchun energoresurslar, suv va yerdan tejamkorlik bilan foydalanish, ekologik toza muqobil elektr energiyani ishlab chiqarish va chiqindilarni qayta ishlashga investitsiya kiritish, davlat xususiy-sheriklik tamoyilini kuchaytirish bugungi kunda eng dolzarb vazifalar hisoblanadi. Kelgusida uzoq muddatli istiqbolda barqaror ish o‘rinlarini yaratish uchun “yashil” iqtisodiyotga o‘tish davrida xodimlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, shuningdek, ularning “yashil” o‘sish bo‘yicha salohiyatini oshirish va inson kapitalini rivojlantirish lozim. Umuman olganda, “yashil” iqtisodiyotga o‘tish keng qamrovli, o‘nlab yo‘nalishlarga ega bo‘lgan ko‘p tarmoqli murakkab jarayon hisoblanadi. "Yashil" loyihalarni moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, YeTTB, OTB) bilan hamkorlik qilinadi. Shuningdek, tadbirkorlarga "yashil" kreditlar va energiya tejovchi uskunalar sotib olish uchun grantlar ajratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 20-oktyabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 841-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-son qarori.

3. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X. “Yashil” iqtisodiyot. Darslik. – Toshkent.: “Universitet”, –2020. –262 b.

4. Lange, Glenn-Mariye, Quentin Wodon, and Kevin Carey, eds. 2018. The Changing Wealth of Nations 2018: Building a Sustainable Future. Washington, DC: World Bank. doi:10.1596/978-1-4648-1046-6. R.8

5. http://siteresources.worldbank.org/EXTSDNET/Resources/Inclusive_Green_Growth_May_ 2012.pdf.

7. https://sustainabledevelopment.un.org/index.php?menu=1446. 8. Inclusive Green Growth the Pathway to Sustainable Development/ The World Bank page-48. 9. https://www.unenvironment.org.

8. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT jurnali.2024-yil, yanvar. № 1-son.

IQTISODIY STATISTIKA KAFEDRASI — Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti —